

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 3-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-3-1

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Babajanova Mexribonjon

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH 4-6

Ismailova Zumrad, Anarbaev Anvar, Vaxidov Umid

ISSIQXONADA HAVOSINI BUG'LATIB SOVUTISH TIZIMI UCHUN SHAMOLLITGICH QURILMANING RATSIONAL ELEKTR PARAMETRLARINI ANIQLASH 7-12

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SALJUQIY HUKMDORLARNING MAMLAKATDAGI ZIYOLILAR QATLAMIGA VA TA'LIMGA KO'RSATGAN E'TIBORI 13-16

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI HOKIMIYAT ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATI BILAN BILAN BOG'LIQ SIYOSIY EVFEMIZMLAR 17-19

YURIDIK FANLAR

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI MAKONDA BOLALARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA "XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT" TAMOIYILINING AMALIY IFODASI 20-25

Maxmudova Hurmatxon

FUQAROLARNING YURIDIK YORDAM OLIH HUQUQI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI 26-30

PEDAGOGIKA FANLARI

Xakimov Tulanboy

TARIX O'QITUVCHISINING NUTQ MADANIYATI VA HIKOYALASH MAHORATI — NARRATIV YONDASHUVNING ASOSI 31-33

Pulatova Lobar

LINGUOCULTUROLOGY AND MEDIA TEXT: THEIR INTERRELATION 34-37

SIYOSIY FANLAR

Umarova Nilufar

STRATEGIC RESILIENCE AND REGIONAL LEADERSHIP: UZBEKISTAN'S PATH THROUGH THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION 38-41

TARIX FANLARI

SALJUQIY HUKMDORLARNING MAMLAKATDAGI ZIYOLILAR QATLAMIGA VA TA'LIMGA KO'RSATGAN E'TIBORI

Narzullayeva Zulxumor Hazratqul qizi

Mustaqil izlanuvchi

Email: zulxumornarzullayeva5@gmail.com

Tel: +998 99 452 44 87

Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya. Saljuqiylar hukmronligining o'ziga xos jihatlari shundaki, bu davrda islom ma'rifatida hamda islom madaniyati rivojida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur davrda musulmon sharqida ilm-ma'rifat sohasida ko'plab islohotlar olib borildi. Bu islohotlar ichida islom ma'rifatiga katta hissa qo'shgan buyuk vazir Nizomulmulkning "Nizomiya" madrasalarini tashkil etishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bu kabi madrasalarning tashkil etilishi musulmon sharqida turli xil ilmlarning rivojlanishigaturtki bo'ldi. Saljuqiy hukmdorlar va vazir rahnamoligi ostida tashkil etilgan ilm maskanlarida zamonasining yetuk allomalari dars berganlar va o'zlari kabi olimlarni yetishib chiqishida muhim rol o'ynaganlar.

Kalit so'zlar: Eron, Hindiston, Iroq, Xuroson. Alparslon, Nizomulmulk, Sulton Sanjar.

THE ATTENTION PAID BY THE SELJUK RULERS TO THE INTELLECTUAL CLASS AND EDUCATION IN THE COUNTRY ANNOTATION

Narzullayeva Zulkhumor Hazratqul qizi

Independent seeker

Annotation. The distinctive feature of the Seljuk rule is that during this period, significant changes took place in Islamic enlightenment and the development of Islamic culture. In this era, numerous reforms were carried out in the field of knowledge and education across the Muslim East. Among these reforms, the establishment of the "Nizamiyya" madrasas by the great vizier Nizam al-Mulk, who made a major contribution to Islamic scholarship, holds special importance. Indeed, the foundation of such madrasas became a driving force for the advancement of various sciences in the Muslim world. In the educational institutions established under the leadership of the Seljuk rulers and their viziers, prominent scholars of the time taught and played an important role in nurturing new generations of learned individuals.

Key words: Iran, India, Iraq, Khorasan. Alparslan, Nizamulmulk, Sultan Sanjar.

Tarixda muhim iz qoldirgan saljuqiylar hukmronligining o'ziga xos jihatlari shundaki, bu davrda islom ma'rifatida hamda islom madaniyati rivojida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Aytib o'tish kerakki, saljuqiylar davrida ko'plab alloma va shoirlar yashab ijod etgan. Jumladan, Abu Homid G'azzoliy, Abul Fazl Bayhaqiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Nizomiy Aruziy, Abul Qosim Qushayriy ("Tafsirul kabir" muallifi), Mu'izziy, Faxriddin Gurgoniy kabilardir.

Boshqa bir manbada kelishicha, Eron, Hindiston, Iroq va Xurosonni o'z tasarrufiga olgan g'aznaviylarning buyuk davlatini o'zaro nizolar zaiflashtirgach, tarix maydoniga chiqqan saljuqiylar ana shu bepoyon hududlarda nisbatan, tinchlik va osoyishtalik o'rnatdilar. Saljuq sultonlari Alparslon, so'ng Malikshoh hamda ularning ma'rifatli vaziri Nizomulmulk zamonida ilm fan va madaniyatning turli sohalari gullab-yashnadi. Shu davrlarda yetishib chiqqan Nizomiy Ganjaviy, Afzaliddin Hoqoniy, Umar Hayyom, Adib Sobir Termiziy, Rashiduddin Vatvot, Mahmud Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Yusuf xos Xojib, Farididdin Attor, Abu Homid

G'azzoliy kabi mutafakkir, mutasavvif allomalar Sharq ma'rifatini, ilm fanini yuksaklarga ko'tardilar [1; B. 9].

Sulton Sanjar hukmronligi davrida poytaxt shaharning ilmiy va madaniy hayoti yanada rivojlandi. Yangi kutubxonalar ochildi. Ularning ba'zilar haqida ishonchli ma'lumotlar bor: "Aziziya" kutubxonasi XII asrning birinchi yarmida tashkil etilgan. Uning asoschisi Aziz ad-Din Abu Bakr Atik az-Zinjaniy bo'lib, Sulton Sanjarning hurmatli kishilaridan bo'lgan [13; B. 34].

Marv madaniy va ilmiy hayotida Samoniylar sulolasi ham yetakchi o'rinni egallaydi. Marvlik mashhur olim, filolog, tarixchi va genealog (nasabshunos) Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Samoniyning (1113-1167) "Kitob al-Ansob" ("Nasabnoma kitobi") asari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan tarix fanlari doktori Sh. Kamoliddinovning ta'kidlashicha, o'sha paytda XII asrda Saljuqiylar davlatining poytaxti – Marvda 10 ta nufuzli kutubxonalar bo'lib, shundan ikkitasi Samoniylar sulolasiga tegishli edi [8; B. 55].

Sulton Malikshoh bilan uning vaziri Nizomulmuluk tarixda birinchi marta (Beruniy davridan so'ng) barcha sharq munajjimlarini anjumanga to'plab 21-22 mart kunlarini Navro'z – yangi yilning boshlanishi deb e'lon qilganlar [1; B. 8].

Saljuqiy hukmdorlar to'g'risida Bartold o'zining "Turkestan va epoxu mongolskogo nashestviya" asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Birinchi saljuqiy hukmdorlar Tug'ul, Alparslon va Malikshohlarning tarihdagi o'rni kattadir". Hatto ularni A. Myuller ham adolatli ma'rifatparvar hukmdorlar deb ta'riflaydi.

Idrish turkiylar haqida shunday deydi: "Birinchi saljuqiy va qorahoniylar G'aznaviy Mahmud va Mas'udga nisbatan haqiqiy musulmon bo'lishgan" [3; B. 371].

Shuningdek, bu davrda islom dinidagi turli mazhab va firqalar o'rtasidagi ziddiyatlarga guvoh bo'lamiz. Aytib o'tish lozimki, saljuqiy hukmdorlar islom dinidagi ma'lum bir diniy va botil yo'nalishlarga qarshi kurashgan bo'lsa-da, boshqa din vakillariga nisbatan diniy bag'rikenglik pozitsiyasida turganlar. Tarix davomida juda keng hududlarni boshqargan musulmon hukmdorlar boshqa dinlarning vakillariga hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lganlar. Islom davlatlarida yahudiy dinidagilar ham, nasroniylar ham hamisha to'la xavfsizlikda, tinch – osoyishtalikda, diniy erkinlikda yashab kelganlar. Saljuqiylar sultonligi va Usmonlilar imperiyasi davrlarida ham Islomning adolati va diniy bag'rikengligi yaqqol namoyon bo'lgan [5; B. 17].

Ser Tomas Arnold o'zining "The Preaching of Islam" ("Islomning yoyilishi") kitobida nasroniylarning Saljuqiylar davlati tarkibiga kirish va ularning qo'l ostida yashashni istaganliklari sababi haqida shunday yozadi: "Musulmonlar qo'l ostida o'z dinlariga e'tiqod qilishning bexavotirligini anglagan xristianlarning tuyg'ulari Kichik Osiyo (Anaduli) xristianlarining saljuqiy turklarini xaloskorlar kabi kutib olishlariga sabab bo'lgan. Buning ustiga imperator Mixail VIII hukmronligi davrida (1261-1282) Kichik Osiyo mayda manzilgohlarining xristianlari Vizantiya imperiyasining zulmidan xalos bo'lish umidida turklardan o'z davlatlariga qo'shib olishni so'raganlar. Bundan tashqari xristianlarning ko'plari boy bo'ladimi yoki kambag'al, turklarning o'sha paytdagi yerlariga ko'chib o'tganlar" [5; B. 17].

Saljuqiy hukmdorlar sunniylik mazhabi bilan bir qatorda moturidiylik ta'limotining musulmon olami bo'ylab keng tarqalishiga katta xissa qo'shganlar. Moturidiylik – kalom ilmidagi aqidaviy yo'nalish bo'lib, Abu Mansur Moturidiy asos solgan. IX asr oxiri X asrda Movarounnahrda Ismoililar aqidalariga qarshi javob tarzida vujudga kelgan. Bu ta'limot rivojlanib, XII asrdan keyin Movarounnahr hududidan chiqib, musulmon Sharqi

mamlakatlariga yoyildi. Saljuqiylar hukmronligi davrida hamma joyda islom aqidalarida Moturidiylik ta'limoti tadbiriq qilindi. Sunniylikning hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiluvchilarning barchasi aqida bobida Imom Moturidiy, uning shogirdlari hamda izdoshlari yozib qoldirgan asarlarga tayanib ish ko'rdilar. Islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrikada bu ta'limot hozir ham o'rta va oliy diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinmoqda [7; B. 163].

Saljuqiylar ma'lum bir davrda muayyan mazhab va ta'limotlarni qo'llab quvvatlagan, ba'zi bir davrlarda esa kuchli ta'qib ostiga olganlar. Jumladan, shofeiylar mazhabi, shia mazhabi, ashariylik ta'limoti shular jumlasidandir. Saljuqiylar, o'z navbatida istilo qilingan mamlakatlarda sunniylik mavqeini mustahkamlashga qaratilgan siyosat yurgizar ekan eng avvalo, o'zlarining siyosiy maqsadlari, ya'ni raqiblarni, birinchi navbatda shialarni zaiflashtirishni ko'zladilar. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun ular Xuroson va Movarounnahrda ulamolarni taklif qila boshladilar va o'z maqsadlariga erishdilar. Movarounnahrlik hanafiylar Yaqin Sharq mamlakatlarida sunniylikning mustahkam o'rnashishida beqiyos xizmat qildilar, shialar mavqeiga putur yetkazdilar. Shuni ta'kidlash joizki, mo'g'ullar istilosiga qadar Buxoro va Samarqandni tark etgan olimlarning aksariyati asli Buxoro yoki Samarqand zaminiga mansub emasdilar, ular, asosan, Balx, Hirot, Qoshg'arda tug'ilib-o'sgan, biroq Movarounnahr shaharlarida diniy ta'lim olgandilar [9; B. 31].

Birinchi saljuqiy sulton Tug'rulbek (1038-1063) hukmronligi davrida Ashariylar ta'limoti – bid'at deb e'lon qilinib, uning tarafdorlari ta'qib etilgan. Movarounnahrda qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasidagi keskin kurashlar ikki fiqhiy mazhab (hanafiy va shofeiylar) ulamolar o'rtasida ham murosasizlikka sabab bo'lgan. O'rtadagi bu murosasizliklar fiqhiy masalalarda emas, balki asosan aqidaviy masalalarda tus olgan edi [10; B. 37]. Biroq, bu ta'limot Boqiloniy, G'azzoliy va boshqalarning asarlari tufayli musulmon olamida katta ta'sirga ega bo'lib, kalomning eng keng tarqalgan oqimiga aylangan [7; B. 35].

Vazir Nizomulmulk hokimiyat tepasiga kelgandan keyin musulmon huquqshunosligi – fiqhda 4 sunniy (hanafiy, shofeiylar, molikiy, hanbaliy) mazhablariga nisbatan munosabat bir xillik kasb etgan. Jumladan, Ashariy ta'limotining yetuk namoyandasi, G'azzoliyning ustoz – Juvayniy Abul Ma'oliy Abdulmalik ibn Abdulloh Imom al-Xaramayn (1028-1085) saljuqiylar vaziri al-Kunduriy tomonidan ashariylarga quvg'in uyushtirilgan paytda Hijozga qochib borib, Makka va Madinada yashagan (1058-1062). Vazir Nizomulmulk davrida ashariylarni quvg'in qilish to'xtatilgan. Juvayniy Nishopurga qaytgan, vazir unga atab Nizomiya madrasasini ta'sis etgan. Shu madrasada Juvayniy shofeiylar fiqhining eng yaxshi bilimdoni sifatida shuhrat qozongan va umrining oxirigacha shu yerda dars bergan.

Yana bir yetuk tasavvufiy olim, xurosonlik ilohiyotchi va sufiy, tasavvufdagi mumtoz risola "ar-Risola fi ilm at-tasavvuf" ("Tasavvuf ilmi haqida risola") muallifi, Qushayriy Abulqosim Abdulkarim ibn Havozi (986-1072) 1048 yildan e'tiboran rahbarlaridan biri bo'lgan ashariy-shofeiylar guruhi Nishopurlik hanafiylar tomonidan qattiq quvg'in ostiga olingan. Hanafiylarni saljuqiylar vaziri al-Kunduriy qo'llab-quvvatlagan. Qushayriy qamoqqa olingan, so'ngra tarafdorlari tomonidan ozod qilinib, Bag'dodga ketgan, u yerda xalifa al-Qoim saroyida hadis ilmidan dars bergan. 1063 yilda vazir xalifa g'azabiga uchrab, so'ngra 1064 yili qatl etilgan. Qushayriy Nishopurga qaytgan [7; B. 299].

Saljuqiylar hanafiylik mazhabi hamda bu mazhabning yetuk namoyandalarini qo'llab-quvvatlagan Ibn Halliqon yozishicha, Sulton Malikshoh Saljuqiyning mustavfiysi (moliya vaziri)

Sharafulmulk Abusaid Muhammad ibn Mansur al-Xorazmiy Abu Hanifaning qabri ustida mashhad va gumbaz qurdirib, yonida hanafiyilar uchun katta madrasa bino qildi. Binoning ochilish marosimida mashhur shoir al-Bayoziy kirib kelib, bir she'r o'qidi. Ushbu she'rda Abu Hanifaning ilm rivojiga qaratilgan xizmati va mazkur mozorni qurishda Abusa'idning bajargan ishini e'zozlab vasf etgan edi [4; B. 96].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy omili bu ilm-fan rivojidir. Buni tarix isbotlagandir. Mamlakatning ijtimoiy- ma'naviy muitini rivojlantirish esa eng avalo, hukumdorlarning alohida e'tiborini qaratihi lozi bo'lgan masala hisoblanadi. Shu boisdan, Saljuqiylar davlatida ham hukmdorlar siyosiy, iqtisodiy, harbiy masalalar bilan birga xalqning savodli bo'lishiga ham katta e'tibor qaratganlar. Ko'plan maktab va madrasalar tashkil etib ularda ta'lim berish uchun o'z davrining kuchli olimlarini mamlakatga taklif etganlar. Ularga va mamlakatdagi ilm olishga qurbi yetmaydigan iqtidorli yoshlarga har tomonlama homiylik qilganlar. Bu esa xuddi shu darvda mamlakat ziyolilar qatlamining rivojlanidhi uchun zamin yaralganligining isbotidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati.
2. Ali Muhammad Sulabiy. Davlatu as- Salajaqa.
3. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya // Sochineniya. – T. I. – M.: Izdatelstvo vostochnoy literatury, 1963.
4. Juzjoni A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari.
5. Horun Yahyo. Islom terrorni la'natlaydi / Ahmad Muhammad Tursun tarjimas. –T.: Mutarjim, 2003.
6. Imad ad-din Isfahoni. Al-Katib al-Isfahani. Leiden, 1889..
7. Islom ensiklopediyasi. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004
8. Muhamedov N.A. Shosh vohasi olimlarining islom ilmlarida tutgan o'rni (X-XII asrlar): Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan.... diss. Avtoreferat. – T. : Toshkent islom universiteti, 2005.
9. Mo'minov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o'rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar): Tar. fan. dok. dis...avtoreferati. – T.: Toshkent islom universiteti, 2003
10. Oqilov S. Abul-l-Mu'in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'litmoti. Monografiya.–T.: Muharrir, 2008
11. Turan. O. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medeniyeti. İstanbul, 2015
12. Sadr ad-din Ali al-Xusayniy. Axbar ad-Dauvlat as-Saljukiyya. M. "Nauka", 1980
13. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. –T.: Fan, 1994.
14. Zakariyo Qazviniy. Osor ul-bilad.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

ISBN-978-9910-8337-3-1

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.